




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



	Özbək dilində ibrani adlari	
20	Rəxşanə BABAZADƏ, Mustafa Zəririn “Yüz hədis və yüz hekayə” əsərində məsdər	175
21	Aytəkin ZEYNALOVA, Özbəkistan və naxçıvan mətbəxində folklor elementləri	178
22	Nazmina ABDISAMETOVA, Qorabuloq shevasida qo‘llanadigan idish-tovoq va uy anjomlari nomi	180
23	Mohlaroyim IZZATOVA, Folklor adabiyotining milliy tafakkur taraqqiyotidagi o‘rni	183

2-sho‘ba. O‘ZBEK SHEVALARI TADQIQOTLARI

1	Samixon ASHIRBOYEV, 20-yillar matbuoti: Faxri Kamolning singarmonizm talqini 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/IYBD6338	187
2	Abdulhay SOBIROV, O‘zbek areal tilshunosligining shakllanish va rivojlanish bosqichlari 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/NDQE1005	191
3	Shukurjon NORBAYEVA, Xorazm shevalari leksikasida substrat asosli birliklar 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/EMTE8289	195
4	Ibrohim DARVISHOV, Namangan qipchoq shevalarida sinonimlar 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/OKNB2844	200
5	Mo‘minjon TURDIBEKOV, Tojikistonda o‘zbek shevalarining o‘rganilishi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/SDAQ1466	205
6	Murodqosim ABDIYEV, Salohiddin RAXMONOV, Chandir shevasining ba’zi grammatik xususiyatlari xususida (Pastdarg‘om tumani Chandir qishlog‘i misolida) 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/DHJ12368	209
7	Jo‘ra XUDOYBERDIYEV, Y.D.Polivanov va o‘zbek shevashunosligining ayrim masalalari	212
8	Alisher UBAYDULLAYEV, Qipchoq lahjasiga mansub ayrim qarindoshlik terminlarining lingvistik tahlili 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/YMZR8354	219
9	Navro‘z RAXMONOV, Qipchoq shevalarini o‘rganishning yangi bosqichi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/YMGU2063	223
10	Zoxira XIDRALIYEVA, Iqon shevasiniung o‘zbek adabiy tili va ayrim o‘zbek shevalariga munosabati	225
11	Baurjan SAYFULLAYEV, O‘zbek va qozoq til kontaktlari natijasida shakllangan toshkent qozoq shevasining lingvistik tahlili	228
12	Zilola TILLABAYEVA, Samarqand viloyati qarluq shevalarida o‘zlashma qatlam va bilingvizm masalalari 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/GKIU1258	236
13	Vaziraxon ALIMBEKOVA, Adabiy tildagi lakuna va sheva leksikasi munosabati	239
14	Muattarxon TURDIXO‘JAYEVA,	243

XORAZM SHEVALARI LEKSIKASIDA SUBSTRAT ASOSLI BIRLIKLAR

SUBSTRATUM-BASED UNITS IN THE LEXICON OF THE KHOREZM DIALECTS

Shukurjon NORBAYEVA,

UrDU professor v.b., filologiya fanlari doktori (DSc)

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/EMTE8289

Annotation. *This article analyzes the substratum-based units in the lexicon of Khorezm dialects. It is argued on the basis of examples that the comparative study of the lexicon of Khorezm dialects with the modern Uzbek literary language and the study of their historical layers provide important information for the field of dialectology.*

Key words: *dialectal lexicon, substrate-based units, the book “Avesta”, the Khorezmian language.*

Xorazm shevalari leksikasida shunday birliklar borki, ular voha shevalari hamda o'zbek xalq shevalari leksikasi bo'yicha tuzilgan lug'atlar, amalga oshirilgan tadqiqotlarda aks etmagan. Muhimi, ularning ayrimlari dialektal leksika taraqqiyotining old bosqichiga mansub bo'lib, kelib chiqishi xorazmiy tiliga borib taqaladi.

Turkiy tillar, jumladan, o'zbek tili o'tmishda yaqin aloqada bo'lgan eroniy tillardan biri eroniy tillarning sharqiy guruhiga mansub bo'lgan qadimgi xorazmiy tili edi. Hozirda o'lik tillardan biri hisoblanadigan xorazmiy tili O'rta Osiyo xalqlari tarixi, madaniyatida, shubhasiz, muayyan rol o'ynagan. Afsuski, qadimgi xorazmiylar va eroniy til guruhiga mansub bo'lgan qadimgi xorazmiy tili, uning turkiy tillarga ta'siri, undan o'zbek tili leksikasiga kirib qolgan elementlar fanda deyarli o'rganilgan emas. Ammo o'zbek tili leksikasida, ayniqsa, xalq shevalari lug'at tarkibida bu tilning ayrim elementlari saqlanib qolgan [Ўзбек тили лексикологияси 1981; 95].

Bu tilga oid yozma manbalar miloddan oldingi III-II asrlarga va milodiy ikkinchi asrga borib taqaladi. Ikkinchi asrning oxiri va uchinchi asr boshlarida Arsamux I va uning rafiqasi zarb qildirgan tangalarda Xorazm yozuvida o'z qallig'ining ismini yozdirganligi ma'lum.

Xorazmiylarning ilk yozuv manbalaridan biri sanalgan “Avesto” haqida Abu Rayhon Beruniy o'z fikrlarini bildirgan edi. Beruniy Xorazmni turli podshohlarning bosib olishi natijasida bu mamlakatda yuz bergan bosqinchiliklar, ularning oqibatlari to'g'risida so'z yuritarkan, ularning yerli xalqlar madaniyatini ko'kka sovurganliklarini, jumladan, xorazmiy tilida yozilgan zardushtiylarning muqaddas kitobi “Avesto”ning Doro ibn Doro xazinasida 12000 mol terisiga zarhal harflar bilan yozilgan bir nusxasi bo'lganligi, Iskandar uni kuydirib yuborishi natijasida beshdan uch qismi butunlay yo'qolib ketganligini achinib yozgan edi. Bundan tashqari, arablarning O'rta Osiyoni bosib olishi natijasida madaniyatimiz durdonalarining yo'qotib yuborilganligini Beruniy achinish bilan shunday ta'riflaydi: “Qutayba ibn Muslim xorazmiy xatini yaxshi biladigan, ularning xabar va rivoyatlarini o'rgangan va bilimni boshqalarga o'rgatadigan kishilarini halok etib, butkul yo'q qilib yuborgan edi. Shuning uchun u (xabar va rivoyatlar) islom davridan keyin haqiqatni bilib bo'lmaydigan darajada yashirin qoldi” [Абу Райхон Беруний 1968; 72].

Beruniy o'zining oxirgi asari “Saydana”da O'rta Osiyoda o'sadigan o'simliklarning o'lik va tirik tillardagi 4500 dan ortiq nomini keltirib, ularning nomlarini, jumladan, arab, yunon, sanskrit, fors, xorazmiy, suryoniy, so'g'diy, turkiy va boshqa tillarda hamda 30 ta shevada izohlaydi. Bular Beruniyning boshqa tillar bilan birga, o'z ona tili - xorazmiy tilini ham puxta bilganligidan dalolat beradi. Chunki Beruniy xorazmiy tili iste'molda bo'lgan davrda dunyoga

kelgan edi. "Saydana"ning kirish qismida xorazmiy tili uning ona tili ekanligini alohida ta'kidlaganligi ma'lum.

X-XII asrlarda Xorazm vohasi aholisi ikki tilda - turkiy til va qadimgi xorazmiy tilida so'zlashgan. XII-XIII asrda O'rta Osiyoda turkiy qabilalar ko'payishi va ustunlik qilishi turkiy tillarning ham ustunlikka erishishiga olib kelgan. Natijada qadimiy xorazmiy tili (xuddi so'g'd tili kabi) XIV asrda o'zbek tiliga singib ketgan. O'zbek tilida mag'lub tilning ba'zi so'zlari saqlanib qoldi: *xo'p* (xo'b), *bog'*, *pochcha* (pichchomi – "dadam"), *osmon* (osm), *juft* (er ma'nosida), *ariq* (ar – suv). O'zbek tilining Qarnoq shevasida akasini va dadasini "pochcham" deb atash hozir ham bor [Ўзбек тили лексикологияси 1981; 95].

Qadimgi Xorazmda yaratilgan "Avesto" kitobi O'rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon va boshqa Sharq xalqlari tarixi, madaniyati, ijtimoiy-siyosiy hayoti, eng muhimi, tili va yozuvini o'rganishda tengsiz obidalaridan biri hisoblanadi. Unda iste'molda bo'lgan ko'pgina so'zlar hozirda bir qancha tillarda, jumladan, Xorazm shevalarida ishlatiladi. Bunga misol tariqasida *bratar* (rus tilida *brat*, tojik tilida *birodar*, nemis tilidagi *broder* ham shunday ma'noda), *nav* (rus tilidagi *новый*, ingliz tilidagi ham shu ma'nodagi *new*, shuningdek, *navro'z* so'zida), o'zbek tili va uning shevalarida faol ishlatiladigan *band* so'zi, Xorazm shevalarida qo'llaniladigan *yop* so'zi arxetipi sanalgan *ob* so'zi (bu so'z negizida o'zbek tilida bir qancha so'zlar va birikmalar yasalgan), farmon ma'nosini anglatadigan *framan*, oltin ma'nosida *zar* kabi qator so'zlarni keltirish mumkin [Йўлдошев 2001; 17-18].

S.L.Volin o'zining e'lon qilinmagan bir ishida Xorazm va bu hududda yashayotgan aholi haqida quyidagi gaplarni yozib qoldiradi: "X asr geograflari va sayohatchilari Xorazm aholisining O'rta Osiyoning viloyatlari va Sharqiy Erondan tili, urf-odatlarini jihatdan ajralib turishi, bunday o'ziga xosliklarning hozir ham Xorazmda saqlanib kelayotganligini ta'kidlaydi [Волин Архив учёных, ед. хранения 10, фонд 93, опись]⁵.

O.Madrahimov S.L.Volinning yuqoridagi fikrlarini mubolag'ali deb hisoblash barobarida, umuman olganda, uning gaplarida jon borligini, yana o'zi ham sobiq sovet mafkurasidan hadiksirab, o'sha davrdagi umumiylik, bir millat atrofiga uyushish, omaviy axborot vositalarining ta'sirida bu farqlarning asta-sekin kamayib borayotganligini ta'kidlaydi [Мадрәҳимов 1973; 50].

O.Madrahimov "O'zbek tili o'g'uz lahjasining qisqacha qiyosiy lug'ati"da eron tillari guruhiga mansub so'zlar to'g'risida fikr yuritir ekan, bu guruhdagi so'zlarning turkiy qatlamdan keyin ikkinchi o'rinda turishini, bu toifa so'zlarning barchasini ham fors-tojik tilidan o'tgan, deyishning tarixiy haqiqatga to'g'ri kelmasligini, uning ikki sababi bo'lib, birinchisi, Xiva xonligining asrlar davomida Eron va tojiklar bilan iqtisodiy va madaniy aloqada bo'lib kelganligi, ikkinchisi, bu hududda qadimiy xorazmliklarning istiqomat qilganliklarini asos qilib keltiradi [Мадрәҳимов 1999; 18].

Olimning bu gaplarida jon bor. Haqiqatan ham, Xorazm shevalarida shunday so'zlar borki, ularning qaysi til elementi ekanligini aniqlash ancha qiyinchiliklar tug'diradi. Chunki ularning ayrimlari eroniy tillar guruhidagi tillarda ham ishlatilsa-da, bu tillardan tovush tarkibi, hatto ma'nosi jihatidan ham o'zaro farqlanadi.

V.V.Bartold o'zining "Xorazm" nomli maqolasida ta'kidlashicha, arablar qadimgi xorazmiy tilini boshqa mamlakatlar aholisi uchun tushunilishi qiyin bo'lgan til deb hisoblagan. A.A.Freyman ham "Хорезмийский язык" asarida xorazmiylar tilida fleksiya hodisasining barqarorligi, grammatik jins kategoriyasining mavjudligi, son turkumiga oid so'zlarning ayrim yodgorliklardagina saqlanib qolganligini va u keyinchalik o'lik til sifatida iste'moldan chiqib ketganligini ta'kidlagan edi [Фрейман 1951]. Ammo bu Beruniy davrida iste'molda bo'lgan xorazmiy tili hozirgi tilimizda, umuman, izini qoldirmagan, degan xulosaga olib kelmasligi kerak.

⁵ Bu materialni F.Abdullayev O.Madrahimovga bergan.

Xorazmiy tili elementlari substrat (tagqatlam) sifatida hozirgi turkiy tillar, jumladan, o'zbek adabiy tili, ayniqsa, Xorazm shevalarida salmoqli iz qoldirgan.

O'zbek tilida mag'lub tilning qoldiqlari sifatida, yuqorida ta'kidlaganlarimizdan tashqari, Xorazm toponimiyasi va shevalarida *chaqqi*, *jorrap* (paypoq), *harvidat* (barqaror), *ardavisht* (sadoqat), *zānggi* (narvon), *salma* (kichik ariq), *gʻoz* (yong'oq), *pātik* (ship), *kundā* (omoch), *sarxum* (krujka), *qariq* (jo'yak), *sārāli* (ko'rsatkich barmoq bilan chimchiloq barmoq oralig'i), *siysāri* (15 kg), *gāshir* (sabzi), *isvānt* (isiriq), *kāt* (taxt, karavot), *gʻavush* (mol o'ti), *dukart* (qaychi), *xaraz* (ot, eshak, tuya kabi hayvonlar yordamida harakatlantiriladigan tegirmon), *baja* singari so'zlar, shuningdek, *Xorazm*, *Xiva*, *Pirnaxas*, *Irdimzan*, *Navxos*, *Pitnak*, *Davdon*, *Don*, *Vadok*, *Juryon*, *Nuzvor*, *Hazorasp*, *Rafinak*, *Gurganch*, *Pishkanik*, *Pirnuxas*, *Zinaxas*, *Xosyon*, *Karvak*, *Indavak*, *Osiyon*, *Sardoba*, *Xushtimisan* kabi qal'a, qishloq nomlari, xususan, "Avesto"ning "Vendidod" qismida Katta Xorazm tarkibiga kirgan *Pourta* (Parfiya), *Gava* (So'g'diyona), *Mouru* (Marv) singari o'rin olgan o'nlab toponim va gidronimlarning xorazmiy tiliga aloqadorligini ta'kidlash kerak. *Ko'zaliqir* nomi tarkibida turkiy elementning uchrashi bu yerda qadimda xorazmliklar bilan birga turkiylarning ham yashaganligini anglatadi. Bunday so'zlar va nomlar borasida A.Ishayev [Ишайев 1960], O.Madrahimov [Мадррахимов 1973; 46-59], Z.Do'simov [Дўсимов 2004; 25-26] kabi tilshunos olimlar o'z tadqiqotlarida ko'pgina fikrlar bildirganlar.

O.Madrahimov Xorazm shevalarida ishlatiladigan eroniy tillarga mansub so'zlar jumlasiga quyidagilarni kiritadi: *pa:za*-so'qaning tishi, *kāpchā* – ariq tozalash uchun ishlatiladigan maxsus belkurak, *kādi* – qovoq, *ya:p* – ariq, *āsvāk* – yer sug'orish usuli, *kā:riz* – chig'iriqqa suv to'playdigan hovuzcha, *da:lan* – katta va keng yo'lak, *pātik* – ship, *dārāchā* – kichik eshik, *chārchi* – attor, *shig'ir* – arava g'ildiragining izi, *arīsh* – arava shotisi kabi [Мадррахимов 1973; 18]. Ko'rinib turganidek, bu so'zlarning ayrimlariga turkiy affikslar qo'shilib kelish holatlari ham uchraydi (*chārchi*, *kāpchā*<*kaftcha*).

O'rganilayotgan hududda xorazmiy tiliga oid shunday so'zlar borki, ulardan ayrimlari ushbu tilga yaqin bo'lgan tillarda ham uchraydi. Chunonchi, Xorazm shevalarida oqova suvni chiqarib tashlaydigan ariqni anglatadigan *badrav* so'zi hozirda dariy tilida xuddi shu ma'noda ishlatiladi [Дари-русский словарь, 2003]. Bu so'z, hatto Afg'oniston aholisi nutqida hozirgi kunda ham qo'llaniladi.

Xorazmiy tiliga eng yaqin sanalgan osetin tilida bir qancha so'zlar borki, ular boshqa tillarda, shuningdek, Xorazm shevalarida ham uchraydi. Bunga misol tariqasida *Don*, *Dunay*, *Dnestr*, *Dnepr* daryolarining nomlarini keltirish mumkin. Bu so'zlarning o'zagi eski osetin tilidagi *dan*, ya'ni suv, daryo; *don arf*, aslida, *dan apr* – katta ariq, *don stīr* (Dnestr) esa *dan stur* dan olingan [Токазов 1964; 8-9]. Bulardagi *don* aynan Xorazmda gidronim sifatida ishlatiladigan *Davdon* tarkibidagi *donga* to'g'ri keladi. Bulardan tashqari, *rast*, *xorz* (yaxshi), *amon* (omon), *tīng* (Xorazmda *dīm* – juda), *xistar* (Xorazm shevalarida *xo'star* – yaqin aka-uka, singillar), *dīm* (tuman), *x'auū* (shahar, qishloq (Xorazmdagi Xivaga to'g'ri keladi), *kard* (noj – ikki, uch, to'rt pichoqli), *nom*, *xos* (pichan), *xarbīz* (tarvuz), *dukan* (do'kon), *xur* (quyosh), *xom* (pishmagan) kabi so'zlar borki, ulardagi biroz fonetik o'zgarishlar hisobga olinmasa, aynan Xorazm shevalariga to'g'ri keladi.

Kor (ish) so'zining avestoviy shakli *kar* "ishlamoq" ma'nosini beradi [م.ص. بیست و پنج ۱۹۹۱]. Fe'l o'zagi va otning ko'pincha bir xil shaklda bo'lishi (ingliz tilidagi kabi) qadimgi fors tiliga ham xosdir. Turkiy tillarda ham fe'l va ot omonimligi masalasi A.M.Shcherbak tomonidan maxsus o'rganilgan [Щербак 1975 18-29]. Hozirgi o'zbek adabiy tilida *kor* shaklida o'zak va affiksial morfemalar bor. Tub so'z sifatida *kor* 1) ish; 2) tashvish; 3) ta'sir; 4) zarurat kabi ma'nolarni anglatadi. Affiksial morfema sifatida uning quyidagi ma'nolari ko'zga tashlanadi: 1. Ekin (ziroat) nomlariga qo'shilganda "ekuvchi" mazmunini kasb etadi: *paxtakor*, *sholikor* kabi. Bu holda u *koshtan* کاشت – ekmoq fe'lining o'zagi hisoblanadi. Mantiqan ish va ekin ma'nolaridagi *kor* asli bir o'zak bo'lib, bora-bora bular o'rtasida bog'liqlik, ya'ni ko'p ma'nolilik zanjiri uzilgan.

Polisemiya orqali omonimlarning yuzaga kelishi o'zbek tilida ham ko'plab uchraydi [Миртожиев 1960]. 2. Muayyan ashyo ma'nosini bildiruvchi otlarga qo'shilganda o'zakka bog'liq kasb egasi mazmunida shaxs oti yasaydi: *kandakor*. Bu holda u -gor, -gar qo'shimchalarining fonetik varianti hisoblanadi. 3. Mavhum otlarga qo'shilganda, shu tushunchani odat qilgan shaxs ma'nolarini ifodalaydi: *sitamkor*, *madadkor* kabi.

Xorazm shevalarida *kar* (ad.-orf. *kor*) nisbatan kengroq ma'noga ega (jumladan, vazifa; mas'uliyat) va *näkara* so'zi tarkibida kasb-korni so'rovchi so'roq olmoshi hosil qiladi. Bu fors tilidagi shu mazmundagi *chekore* چكاره bilan bir xil qolipda yasalgan. Ushbu o'ziga xosliklar hamda tarixan taqqoslaganda ko'plab so'zlarning g'arbiy va sharqiy guruh eroniy tillarda bir-biriga yaqin (ba'zan bir xil) shakllarda ishlatilganini hisobga olib, Xorazm shevalaridagi *kar* so'zi substrat qatlamga mansub, deb hisoblaymiz.

Xorazmiy tili elementlarining badiiy asarlarda ham shevaga xos so'zlar sifatida faol qo'llanilganligini ko'rish mumkin. Chunonchi, Ogahiyning nazmiy merosini o'zida jamlagan "Ta'viz ul-oshiqin" devonida xorazmiy tiliga aloqador, ammo boshqa shevalarda juda kam ishlatiladigan *rash* (ariq chekkasidagi uzunasiga ketgan tuproq uyumi), *yaf* (shevalarda *yop*, ya'ni ariq ma'nosida), *ispand* (isiriq) kabi so'zlar iste'molda bo'lgan:

Bo'lma gunah dashti aro navmidlik lab tashnasi-

Kim, afvu *yofi* ichra suv mavji yetar *rosh* ustina [Огаҳий 1972; 36].

Donayi *ispand* yo o't uzra tushganmu ekan,

Kirpigimu o'qu yo xanjarmudur bilmon yaqin [Огаҳий 1972; 209].

Bunday misollarni yanada ko'plab keltirish mumkin.

Isvänt (isiriq) so'zi ham Xorazm shevalaridagi substrat birliklardan hisoblanadi. Mazkur so'z "Devonu lug'otit-turk"da *isiriq*, *yizig' o't* shaklida berilgan. Mahmud Koshg'ariyning qayd qilishicha, isiriq bolalarning boshlariga toshadigan yaralarni yoki ko'z tegishidan bolalarni davolaganda aytiladigan so'z; tutatiladi va bolaning yuziga tutuni "isiriq-isiriq" (ey jin, es-hushingni yo'qot) deb tutiladi [Кошғарий Махмуд 1963; 19]. Xorazm shevalaridagi *isvānt* o'simlik nomining tarixiy-etimologik tavsifi uning Xorazm qipchoq lahjasi vakillari nutqidagi aynan "isiriq" ma'nosidagi *adrasman* // *adraspan* so'ziga qiyoslash orqali yanada oydinlashadi.

Adrasman so'zidagi *adra*//*atra* eroniy tillarda *adar* // *atar* // *azar* ("z" tishora) bo'lib, *olov* ma'nosiga ega va hozirgi fors, tojik, dariy tillarida *ozar* shaklida ishlatiladi. Zardushtiylarning olov posboni *oturbon* deb yuritilib, bu so'zning birinchi komponenti *adra* // *atra* bilan bog'liq [Авесто – тарихий-адабий ёдгорлик 2001; 326]. So'zning ikkinchi komponenti "sipanta" bo'lib, asl lug'aviy ma'nosi "oq" bo'lgani holda ma'no ko'chishi (metafora) natijasida ezgu, muqaddas kabi ma'nolarni anglatadi [Пустамов 2001; 303]. Shunga asosan aytish mumkinki, *adrasman* // *asdraspan* aynan *ezgu olov* ma'nosini ifodalagan. Shularga asoslanib aytish mumkinki, *isvant*//*adrasman*// *adraspan*//*hazarispant* so'zlari ayni bir so'z bo'lib, *isvant* so'zida uning birinchi (aniqlanmish) qismi qisqargan va sifatning o'zi ot vazifasini bajargan. Bu jarayon ancha oldin yuz berganini mazkur so'zning Navoiy asarlarida "isiriq" ma'nosida "sipand" so'zi ishlatilgani ham ko'rsatadi:

Ul oy o'tlug' yuzin ochsa, Navoiy tegmasun deb ko'z,

Muhabbat tuxmidin o'zga ul o't uzra *sipand* etmas [Алишер Навоий 1987; 223].

Juvaz so'zi ham xorazmiy tiliga mansub lug'aviy birliklardan sanaladi. Mazkur so'z shevalarda sariyog' olinadigan, toshdan yoki yog'ochdan yasalgan og'ir hovan (keli) ma'nosini anglatadi. Xorazmda yana shu ma'noda kubi (kupi) so'zi ham ishlatiladi. Juvaz tarixan ikki qismdan tashkil topgan: jav + os. Jav umumeroniy so'z bo'lib, pahlaviyda *jav* yoki *yav*, qadimgi hindchada *yava*, kurdchada *yo*, *jau*, *je* tarzida bir - biriga yaqin shakllarda qo'llanadi. Hozirda arpa ma'nosida ishlatiladigan bu so'z avvallari umuman g'alla, don ekini ma'nosini anglatgan. Qadimgi manbalardan bo'lgan "Avesto"da *yava* bug'doy ma'nosini ifodalagan. Demak, juvoz oldin

bug'doy tegirmoniga nisbatan ishlatilgan, keyinchalik yog' olinadigan tegirmonga nisbatan qo'llanila boshlagan, deyishimizga asos bor.

Xulosa qilib aytganda, Xorazm shevalari leksikasi tizimida eroniy tillarga mansub birliklarning uchrashi, eng avvalo, turkiy xalqlarning eroniy xalqlar bilan muttasil mustahkam iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqalari bilan izohlansa, ikkinchidan, voha aholisi nutqida xorazmiy tiliga oid ayrim elementlarning saqlanib qolgani, bularning bir qismini esa shevaga xos so'zlar tashkil etishidir.

Yuqorida qayd etilgan fikrlarga asoslangan holda shunday xulosa chiqarish mumkinki, o'zbek tili, xususan, Xorazm shevalaridagi xorazmiy qatlamga oid so'zlarni aniqlash uchun, birinchi navbatda, bu zaminda yaratilgan qadimgi yozma yodgorliklar tilini, qolaversa, O'zbekiston hududidagi o'zbek shevalari tarkibidagi fors-tojikcha so'zlarni o'zaro qiyosiy o'rganish zarur. Xorazmiy qatlamga aloqador deb hisoblanadigan so'zlarni eroniy tillar grammatikasi, ular bo'yicha tuzilgan lug'atlar yordamida tipologik qiyoslash asosida tadqiq qilish bu masalaga ko'pgina oydinliklar kiritishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. –1 том. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. –Тошкент: Фан, 1968.
2. Авесто –тарихий-адабий ёдгорлик. Аскар Маҳкам таржимаси. – Тошкент: Шарқ, 2001.
3. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Биринчи том. – Тошкент: Фан, 1987.
4. Волин С.Л. Материалы по хорезмскому языку, рукопись, стр.1-2 (по ленинградским и ташкентским рукописам. Ин-т Востоковедения. Архив учёных, ед. хранения 10, фонд 93, опись 1).
5. Дари-русский словарь. – М.: Русский язык, 2003.
6. Дўсимов З. Хоразм топонимлари. Тошкент: Фан, 1985.
7. Дўсимов З. Огаҳий асарларида хоразмий тили элементлари // “Огаҳий олами” тўплами. –Урганч, 2004.
8. Ишаев А. Манғит шеvasи лексикаси тарихидан // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. –Тошкент, 1960.
9. Йўлдошев Р. “Авесто” ёзуви ва тили. // “Авесто” - буюк қомусий асар. – Тошкент, 2001.
10. Кошғарий Маҳмуд. Девону луғот ит-турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. Муталлибов. Т.III. – Тошкент: Фан, 1963.
11. Мадраҳимов О. Ўзбек тили ўғуз лаҳжасининг қисқача қиёсий луғати. – Урганч, 1999.
12. Мадраҳимов О. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикаси. – Тошкент: Фан, 1973.
13. Миртожиев М. Полисемиядан омонимларнинг келиб чиқиши ҳақида // Тилшунослик масалалари. – Тошкент, 1960.
14. Огаҳий. Девон. 2-жилд. –Тошкент, 1972.
15. Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Тошкент: 1987.
16. Токазов Х. Русско-осетинский разговорник. – Оржоникидзе, 1964.
17. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981.
18. Фрейман А.А. Хорезмийский язык. Материалы исследования. 1. – М.-Л., 1951.
19. Щербак А.М. К вопросу о происхождении глагола в тюркских языках // Вопросы языкознания. – 1975. – №5.